

International Scientific Conference

International Conference on
Innovative Development of
Education 2022/7

ISSN: 2181-3515

25 August, 2022 YEAR

ERUS.UZ



PKP | INDEX

Uzbekistan, Tashkent

“EDUCATIONAL RESEARCH IN UNIVERSAL SCIENCES”



“INTERNATIONAL CONFERENCE ON INNOVATIVE
DEVELOPMENT OF EDUCATION 2022/7”

erus.uz

Languages of publication: o‘zbek, english, русский, қазақ,

TASHKENT, UZBEKISTAN

2022/ AUGUST 25

**TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING
MUSTAMLAKA SIYOSIY-MA’MURIY BOSHQARUV
TIZIMNING O’RNATILISHI**

Jobborov Zokirjon Abdug‘appor o‘g‘li

Namangan davlat universiteti Tarix yo‘nalishi talabasi

E-mail: Jabborovzokirjon66@gmail.com

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda Vatanimiz tarixiga yangidan va xolisona nazar tashlash, ayniqsa, XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlaridagi mustamlakachilik davri tarixi xususan, Samarqand viloyati tarixini o‘rganish nafaqat ilmiy jihatdan, shu bilan birga ijtimoiysiyosiy va ma'naviy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: General-gubernator, Zarafshon okrugi, Nizom, Harbiy, Boshqarma, Boshqarma

Hozirgi paytda mamlakatimizning uzoq tarixiy taraqqiyoti jarayonida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy moddiy va madaniy merosni chuqur o‘rganish, ularni asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni milliy istiqlol g‘oyalari atrofida mustahkam jiplashtirishga alohida e’tibor berilmoqda. Ushbu keng qamrovli vazifalarni izchil amalga oshirishda barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar qatori tarix fani ham yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Istiqlol sharofati bilan O‘zbekiston tarixini izchil hamda xaqqoniy tarzda o‘rganish yuzasidan ko‘plab sa’y-harakatlar, turli darajadagi ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda Vatanimiz tarixiga yangidan va xolisona nazar tashlash, ayniqsa, XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlaridagi mustamlakachilik davri tarixi xususan, Samarqand viloyati tarixini o‘rganish nafaqat ilmiy jihatdan, shu bilan birga ijtimoiysiyosiy va ma'naviy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev alohida to‘xtalib, “Samarqand tuprog‘ida voyaga yetgan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodiy Shukuriy, Hoji Muin, Saidahmad Siddiqiy, Abdulhamid Majidiy singari o‘nlab ma‘rifat fidoyilarining qoldirgan merosini bugungi kunda ham ma‘naviyatimizni yuksaltirishda, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda”¹ deya haqli ta‘kidlab o‘tgan. Bundan tashqari, Samarqandda - Imom Buxoriy ilmiy markazida hadisshunoslik maktabini tashkil etsak, o‘ylaymanki, juda foydali bo‘ladi² deb Samarqand diyoriga alohida e‘tibor bergan.

Shundan kelib chiqib bugungi kunda O‘zbekiston tarixi, shu jumladan, Samarqand viloyati tarixini, uning Turkiston general-gubernatorligida tutgan o‘rnini bir yoqlama qarashlar hamda o‘tmishni soxtalashtirishdan voz kechgan holda, zamonaviy yondashuvlar asosida har tomonlama xolis va haqqoniy yoritish mavzuning dolzarbligini belgilaydi. 1868-yil 23-iyunda Buxoro amiri Turkiston general gubernatori fon Kaufman bilan sulh tuzib, Rossiyaning vassaliga aylandi. Bu sulhga ko‘ra, Buxoro amiri mustaqilligini yo‘qotibgina qolmay, Samarqand, Kattaqo‘rgon va Zarafshon daryosining yuqori qismidagi yerlardan ham ajraldi. Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan xududlarda ma'muriy-hududiy birlik, ya'ni markazi Samarqand bo‘lgan Zarafshon okrugi tuzildi, uning boshlig‘i etib Aleksandr Konstantinovich Abramov tayinlandi. 1867-yildagi "Turkiston general-gubernatorligi viloyatlarni boshqarish haqidagi vaqtli Nizom loyihasi" deb atalgan qonunlar majmuasiga ko‘ra ko‘chmanchi aholigaikki bosqichli (volost va ovullar), o‘troq aholiga esa bir bosqichli (oqsoqolliklar) boshqaruv tizimi joriy qilindi. Turkiston general-gubernatorligi tomonidan 1868-yilda tashkil etilgan Zarafshon okrugida stlab Samarqand va Kattaqo‘rgon bo‘limlaridan iborat bo‘ldi. 1871-yildaularga yangi ma'muriy-hududiy birlik-tog‘li tumanlar qo‘shildi. U Zarafshon daryosining yuqorisidajoylashgan mayda beklklardantuzildi. Turkiston general-gubernatorligini

¹ Мирзиёев Ш. Самарқанд – Ер юзининг сайқали // Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан кураимиз. –Тошкент.; Ўзбекистон, 2017. –Б. 178.

² Мирзиёев Ш. Миллий таракқиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. –Т.; Ўзбекистон, 2017. –Б. 491.

boshqarish bo'yichadasturiy hujjatlarning ishlab chiqarilishida “harbiy vaziyfa” omili xal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Ana shu omil Turkiston general-gubernatorining 1868yil 19-iyunda tasdiqlangan "Zarafshon okrugini boshqarishning vaqtinchalik qoidalari"da ham o'z aksini topdi. Hujjatning asosiy majmuyi K.P.Kaufmanning bevosita rahbarligida ishlab chiqildi, unda ma'muriy tizim "harbiy-xalq boshqaruvi" debataldi. 1886-yilgi “Turkiston o'lkasini boshqarish nizomi”ga muvofiq, Turkiston o'lkasining ma'muriy-hududiy bo'linishi o'zgartirildi. Bunda mavjud birliklarni unifikatsiyalash prinsipiga izchil rioya qilina boshlandi. Zarafshon okrugi Samarqand viloyatiga aylantirildi³. Uning tarkibiga Sirdaryo viloyatining Xo'jand va Jizzax uyezdleri o'tkazildi va keyinchalik Samarqand viloyati Jizzax, Kattaqo'rgon, Samarqand va Xo'jand uyezdlaridan tashkilot⁴. Shunday qilib, 1886-yilgi Nizomdan so'ng o'lka idorasi markaziy, viloyat, tuman (uyezd), jabha (uchastka), qishloqva shahar boshqaruvi shaklida tashkil topdi.

Samarqand shahri viloyat boshqaruvi qarorgohi hisoblangan. Siyosiy boshqaruvda olib borilgan o'zgarishlar mahalliy boshqaruvdagi tashkilot vakadrlarning shakllanishiga olib keldi. Jumladan, dastlab Zarafshon okrugida Samarqandva Kattaqurgon bo'limlari tashkil etilgan edi. Shu munosabat bilan chor

ma'muriyati tomonidan okrug boshqaruv tizimida yangi lavozimlar tashkil etildi.

Xususan, Turkiston general-gubernatorining 1869-yil 24- oktyabrdagi tasdig'i bilan Zarafshon okrugi boshqaravi asosan quyidagi lavozimlardan iborat bo'ldi:

-Zarafshon okrugi boshlig'i,

-Zarafshon okrugi devonxonasi boshlig'i,

-Devonxonaish yurituvchisi; Bo'limlari

bo'yicha:

-Samarqand Bo'limi

-Kattaqo'rgon bo'limi boshlig'i,

-Bo'limyordamchilari (biri ruslardan. yanabiri mahalliy aholi vakilidan)

tarjimonlar va boshqa lavozimlar shular jumlasigakirdi.

³ История Самарканда. –Т.: Фан, Т. 1.–С. 304.

⁴ Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тизими. –Т.: Академия, 2002.

“Zarafshon okrugini boshqarishning muvaqqat qoidalari”ga ko‘ra, okrug boshlig‘I izmidaharbiy, ma‘muriy, politsiya va sudlov hokimiyati bo‘lgan. Shu bilan bir qatorda, Zarafshon okrugi ma‘muriyatigadiplomatik vazifalar ham berilgandi. Ya‘ni, Zarafshon okrugi boshlig‘ining vakolatiga qo‘shni Buxoro amirligining beklıkları bilan “chegaramunosabatlarini olib borish” hamkirdi.

Okrugni rus armiyasi generallaridan shaxsan podshoning o‘zi tayinlaydigan kishilar boshqargan. Zarafshon okrugi markazi hisoblangan Samarqand shahrida ham shahar boshqaruvi tarkibi quyidagi bo‘limlardan iborat bo‘lgan:

Okrugda umumxalq ishlari bo‘yicha mudir va shahararxitektori.

Okrugda sug‘orish ishlari bo‘yichamudir.

Okrugdagi aksiz soliqlari bo‘yichamudir.

Shaharhokimi.

Aytish joiz, harbiylashtirilgan byurokratiya okrugdagi (keyinchalik viloyatdagi) boshqaruv tizimining barchaasosiy nuqtalarini egallagan edi. Faqat volost va qishloqdarajasidagi boshqaruvni tashkil etish go‘yo mahalliy jamiyat ixtiyoriga berilgandi. 1886-yilgi “Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi Nizom”dan so‘ng Zarafshon okrugi Samarqand viloyati deb o‘zgartirildi va viloyat, tuman, (uyezd), jabha (uchastka), qishloq va shahar boshqaruvi shaklida tashkil topdi. Viloyat boshqaruvi: harbiy gubernator va viloyat boshqarmasidan iborat bo‘ldi⁵. Samarqand viloyat boshqarmasi 3 bo‘limdan iborat bo‘lgan:

-Farmoyishberadiganbo‘lim;

-Xo‘jalik bo‘limi;

-Ssuda bo‘limi;

Samarqand viloyat boshqarmasi harbiy gubernatorgabo‘ysungan. Viloyatni rus armiyasi generallaridan shaxsan podshoning o‘zi tayinlaydigan harbiy gubernatorlar boshqargan. Ular harbiy va fuqaro hokimiyatini o‘z qo‘lidatutgan. Harbiy sohada viloyatdagi qo‘shinlar (diviziya yoki korpus) qo‘mondoni, fuqaro ishlarida esa gubernator huquqiga ega bo‘lgan barchama‘muriy, politsiya va sud hokimiyati ham

⁵ Бродовский М. Заметки о земледелии в Самаркандском районе // Туркестанский сборник. –СПб., 1873.–С.

ularning izmida bo‘lgan. Ya'ni, harbiy gubernatorlarga mohiyatan diktatorlik vakolatlari berilgan edi. Bular: volost boshqaruvchilarini lavozimga tasdiqlash yoki saylovlar bekor qilingan taqdirda, ulami o‘z ixtiyoriga ko‘ra tayinlash, xalq sudyalarini va sudyalikka nomzodlarni tasdiqlash hamda ular tasdiqlanmagan taqdirda, yangi saylovlarni tayinlash, o‘z ixtiyoriga ko‘ra, uyezd ma'muriyati a'zolarini tayinlash va ishdan olish (uyezdboshligi bundan mustasno bo‘lib, ular to‘grisida faqat general-gubernator nomiga taqdimnomayozilardi); uyezd boshliqlari tubaholivakillariga belgilangan jarimani to‘lash yuzasidan kelgan shikoyatlarni ko‘rib chiqqan.

Samarqand viloyatini 1886-yildan 1917-yilga qadar 8 tagubernator boshqargan bo‘lib, o‘rta hisobda ularning har biriga 3-4 yil muddatdan to‘g‘ri kelgan. Tarixiy ma'lumotlarbu gubernatorlar - A. Yafimovich, N. Rostovtsev, M. Federov, V. Medinskiy, A. Gasket, A. Galkin, N. Likoshin kabilarning faoliyatigaoid keng ma'lumotlar beradi. Ularning barchasi ma'lumotli, zodagon dvoryanlar bo‘lgan. Viloyat harbiy gubernatorlarining maoshi 15ming rublgacha bo‘lib, bu markaziy Rossiyadagi gubernatorlamikidan 2 barobar ko‘p edi. Samarqand viloyat boshqarmasi quyidagi shtatlardan iborat bo‘ldi:

- 1) Viloyat boshqarmasi raisi (shuningdek, harbiy gubernatoryordamchisi);
- 2) Maslahatchilar (Bo‘limboshliqlari);
- 3) Ish yurituvchilar;
- 4) Ish yurituvchilaming yordamchilari;
- 5) buxgalter;
- 6) Tarjimon.

Viloyat boshqarmasi raisi shuningdek, harbiy gubernator yordamchisi hisoblangan. U harbiy gubernator tobi qochgan, yo‘q bo‘lganyoki bo‘shatilgan hollarda uning xizmat vazifasini bajargan. Gubernator yordamchisi general gubernator taqdimnomasi orqali ishga tayinlangan. Samarqand viloyat

boshqarmasi vazifasiga quyidagilar kirgan:

- viloyatnima'muriybo‘lishvatashkiletish;
- hukumatqonunvafarmoyishlarini e’lon qilish;

-amaldorlami ishga tayinlash, ishdan chetlatish vamexnat ta'tili berish, mukofotlarga taqdim etish, nafaqa va maosh belgilash, mansabdor shahslami sudga topshirish:

-chet elliklami fiiqarolikka qabul qilish;

-aholio'rtasidayernitaqsimlash;

-viloyatda obrok Bo'limlariniboshqarish;

-viloyatda yarmarka va bozorlami ta'sisetish;

-viloyatning statistik ma'lumotlarini to'plash mahalliy aholidan soliq va to'lovlarni olish;

-fuqarolik va jinoyat ishlarini suddako'rilishgatayyorlash

-maxfiyhujjatlarinituzish;

-viloyatdagi barcha savdo va pudratlami yurgizish, shartoomalar tuzish.

Bular gubernator devonxonasi, gubernya vrachlik mahkamasi, davlat mulki palatasi, okrug sudlari va hokazo. Shuningdek viloyat tibbiy nazorati viloyat vrachiga yuklangan, u gubernya vrachligi nazoratchisi huquqlaridan foydalangan va bevosita harbiy gubernatorga bo'ysungan. Viloyat boshqarmasi qoshida irrigatsiya ishlarini boshqaruvchi amaldor bo'lib, asosiys ug'orish kanallari, sug'orish ariqlariga qo'shimcha bo'lgan va ulardan ajralib chiquvchi sug'oruvchi kanallar, suvo'tkazgichlarini nazorat qilish, yangi irrigatsiya inshootlari, mavjud inshootlami yaxshi tutish, ta'mirlash va qayta qurishda texnik ko'rsatmalar bergan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasidagi harbiy yurishlari natijasida, Buxoro amirligining Xo'jand, O'ratepa, Samarqand, Kattaqo'rg'on kabi siyosiy jihatdan muhim strategik o'ringa hududlari ajratib olinib, bu hududda dastlab Zarafshon okrugi keyinchalik esa, Samarqand viloyatitashkil etildi. Shundan boshlab, Rossiya

imperiyasi ma'muriyati tomonidan o'zining manfaatlaridan kelib chiqib mustamlakachilik siyosati amalga oshirdi. Bu davrda Rossiya imperiyasi sanoat korxonalarini uchun zarar bo'lgan paxta maxsuloti yetkazib berish birinchi darajaga ko'tarilib, qishloq xo'jaligida dehqonchilik qilinadigan sug'oriladigan deyarli barcha

yerlarga paxta yetishtirish kuchaytirildi. Shu bilan birga viloyatda mustamlakachilik boshqaruv tizimi to‘liq o‘rnatildi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Мирзиёев Ш. Самарқанд – Ер юзининг сайқали // Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан қурамыз. –Тошкент.; Ўзбекистон, 2017. – Б. 178.
2. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. –Т.; Ўзбекистон, 2017. –Б. 491.
3. История Самарканда. –Т.: Фан, Т. 1.– С. 304.
4. Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Т.: Академия, 2002.
5. Бродовский М. Заметки о земледелии в Самаркандском районе // Туркестанский сборник. –СПб., 1873.– С. 419-447.

MAKTAB YOSHIDAGI BOLANING NUTQINI RIVOJLANTIRISH

Nodirova Sarvinoz Ne'matjon qizi

Farg‘ona viloyati Quva tuman 50-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Mahmudova Gulnora Zafarovna

Farg‘ona viloyati Quva tuman 50-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda bolalar og‘zaki nutqini rivojlantirishda o‘yin, ota onaning o‘rni haqida fikr yuritilganq

Kalit so‘zlar: polisemiya, semantik soya, ijodiy tafakkur, anatomik-gimnastik mashq.

Maktab yoshdagi bolaning nutqini rivojlantirish uchun asosiy o‘yin vazifalaridan biri bu bolaning so‘zlarini boyitish, tushunchalarni o‘zlashtirishda, ishlatilgan so‘zlarning polisemiyasini va ularning semantik soylarini tushunishda. O‘yinlarda bolaning nutq faoliyati rivojlanadi, ona tiliga qiziqish va e’tibor tarbiyalanadi shu tariqa bola to‘g‘ri va ifodali so‘zlashga o‘rgatiladi. Birinchi sinfga borgan bolaning so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etishida o‘qituvchining xizmati katta. Bolalarning barchasiga tushunarli, shevalardan foydalanmay sof badiiy nutqda dars jarayonini olib borishni talab etadi. Ma’lumki, mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo‘llab, bolalarga chuqur bilim berish maktab ya’ni boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifasidir. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayoniga olib kirildi Boshlang‘ich maktabda nutqni rivojlantirish muammosi eng muhimlaridan biridir. Obrazli, sinonimlarga, qo‘shimcha va tavsiflarga boy, bolalar nutqi bugungi kunda kam uchraydigan hodisadir. Bola uchun esa yaxshi nutq muvaffaqiyatli o‘rganish va rivojlanishning kalitidir. Afsuski, shuni ta’kidlash kerakki, ko‘plab bolalar nutq darajasi past bo‘lgan

holda o‘qishga keladilar, gapni to‘g‘ri qurishni bilmaydilar, monolog gapirmaydilar, noto‘g‘ri talaffuz, keyin esa imlo bilan bog‘liq suhbatda xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Ko‘pincha ularning nutqi lakonik, quruq, tasvir va yorqinlikdan mahrum. Aniq va grammatik jihatdan to‘g‘ri gapirishga, puxta o‘rgatilgan ovozga ega bo‘lishga, o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda ifodalay olishga, o‘z his-tuyg‘ularini turli intonatsion vositalarda ifodalay olishga o‘rgatish, nutq madaniyatini kuzatish va so‘zlash qobiliyatini rivojlantirishdir. Demak, o‘quvchilarni o‘qitishning hozirgi bosqichidagi eng muhim vazifalardan biri nutq faoliyatini rivojlantirishdir.

Shuning uchun o‘qituvchi oldida bolalarni so‘zni his qilishga, gaplar tuzishga, matnni (mavzu, g‘oya, tuzilish) tushunishga o‘rgatish vazifasi turibdi. Bu muammoni faqat ona tili, adabiyot, o‘qish darslarida emas, balki boshqa darslarda ham, sinfdan tashqari vaqtlarda ham hal qilish kerak. Og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalari bolada ko‘plab omillar ta’sirida shakllanadi. Shuning uchun bolalarning nutq faolligi, muloqot qilish, o‘z fikrlarini ifoda etish uchun sharoit yaratishda juda muhimdir. Talabalar nutqini turli til vositalari bilan boyitish, nutqdagi kamchiliklarni oldini olish va bartaraf etish, talaffuz me‘yorlari va nutq vositalarini o‘zlashtirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning boshlang‘ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog‘lom va rivojlangan shaxs bo‘lib shakllanishini ta’minlab, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini uyg‘otib, tizimli o‘qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo‘lgan maktabgacha ta’lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta’lim muassasalarida va oilada amalga oshiriladi. Maktab ta’limning maqsadi - bolalarni o‘qishga tayyorlash, bolani sog‘lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo‘lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o‘qishga, tizimli ta’limga bo‘lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Bolalar nutqini o‘stirish orqali ularning nutq a’zolarini anatomik-gimnastik mashq qildirish orqali nutqning ravon tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi: bolalar tafakkuri, aqliy faoliyatini rivojlantiradi, ularda nutq odobi, ma’naviy barkamollikni shakllantiradi. Chunki yaxshi rivojlangan nutq tushunarli ta’sirchan bo‘ladi, bola o‘z nutqini tuzatib boradi. Nutqni rivojlantirish nafaqat bolani atrof-olam bilan tanishtirish tomoni, balki umumiy psixik rivojlanish ustuni hisoblanadi. Bola

nutqining rivojlanishi umuman shaxsni va shu bilan birga barcha psixik jarayonlarni shakllantirish bilan bog‘liqdir. «...Tilni egallash jarayoni -bu faqat shunchaki bilimlar, mahorat hamda ko‘nikmalarni berish jarayoni emas. Bu eng avvalo tarbiyadir. Qalbni tarbiyalash, aqlni tarbiyalash, fikrlar tuzishni shakllantirish, inson ruhiy qiyofasining eng nozik qirralariga chidam bilan ishlov berishdir» (K.D.Ushinskiy). Shuningdek bolaning nutqidagi kamchiliklarni faqat o‘qituvchi yoki, ota-onaga bog‘liq emas.Oila, maktab hamkorligi yaxshi yo‘lga qo‘yilgandagina, bolada ijobiy o‘zgarishlar kuzatsak bo‘ladi. Bundan tashqari har bir oilada badiiy adabiyotga qiziqish ortgandagina, jamiyatda o‘sinh va rivojlanish sezilarli darajada o‘z kuchini ko‘rsatadi. Inson ma’naviyatli va madaniyatli bo‘lib tug‘ilmaydi, u bilim olish jarayonida shakllanadi. Bizning oldimizda turgan eng katta masalalardan bir esa, o‘shib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama kamol topgan shaxs sifatida tarbiyalanishi uchun qo‘limizdan keladigan barcha ezgu ishlarni qilishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR: (REFERENCES)

- 1.R.M.Qodirova. O‘zbekiston bolalar bog‘chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o‘rgatish. -T.: O‘qituvchi, 1993.
2. Babaeva D.R. Nutq o‘stirish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. - T.: TDPU, 2016.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA PAST O‘ZLASHTIRUVCHI O‘QUVCHILAR BILAN TUZATISH ISHLARINI OLIB BORISH

Nuritdinova Dilnoza Abdukamolovna

Farg‘ona shahar 42-o‘rta maktab

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tadqiqotchi tomonidan maktab o‘qituvchilari hal qilishi kerak bo‘lgan asosiy muammolardan birini ko‘rib chiqilgan - bu o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlash. Bu aqliy qobiliyati zaif va o‘rganish qobiliyati zaif, xotirasi past yoki samarali o‘quv motivlariga ega bo‘lmagan o‘quvchilar hisoblanadi. Ushbu toifadagi o‘quvchilarning o‘zlashtirmay qolib ketishining oldini olish uchun ular bilan tizimli ish olib borish zarur. Buning uchun soha mutaxassislarining ilmiy ishlari o‘rganildi [1-14].

Kalit so‘zlar: past o‘qiydiganlar, ish rejasi, differentsial yondashuv, qiyinchiliklarni yengish, muvaffaqiyat.

CARRYING OUT CORRECTIONAL WORK WITH LOW-MASTERING STUDENTS IN ELEMENTARY GRADES

ABSTRACT

In this article, the researcher examines one of the main problems that school teachers have to deal with - working with students with low achievement. These are students with intellectual and learning disabilities, low memory or lack of effective learning motivation. It is necessary to systematically work with students of this category to prevent them from learning. For this, the scientific works of industry experts were studied [1-14].

Key words: low learners, work plan, differential approach, overcoming difficulties, success.

Mustaqillik yillarida Respublikamizda amalga oshirilgan ishlar asrlarga arzigulik mazmun va samara kasb etmoqda. Ta'lim to'g'risidagi Qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturida belgilangan maqsad va vazifalar bevosita yoshlarning har tomonlama komil inson sifatida kamol topishiga xizmat qiluvchi me'yoriy asos sifatida talqin qilinadi. Respublikamizda kadrlar tayyorlash milliy dasturining bajarilishi, barkamol shaxsni shakllantirish masalalari, ta'lim tizimiga innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish muammolari, respublikada oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash istiqbollari, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni takomillashtirish tendentsiyalari, pedagogik kadrlar tayyorlash sohasida xalqaro hamkorlik holati va istiqbollarini yoritishga qaratilgan [1].

Mening sinfimdagi o'quv jarayonida alohida e'tibor talab qiladigan bolalar bor. Bular maktabga tayyorgarlik darajasi past, fikrlash sifati past bo'lgan bolalardir. Mening vazifam o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashni malakali tashkil etish, ularga yordam berish va qiyinchiliklarni yengishga yordam berishdir. Avvalom bor bunday xol ro'y berishining sabablarini, ushbu o'quvchilarning bilimlarida bo'shliq paydo bo'lishiga olib keluvchi omillarni o'rganib chiqish zarur. Bu omillarga maktabda yaratilgan sharoit, maktabning o'quv moddiy bazasi, darslikning yetishmasligi, o'qituvchi kasb-mahoratining yetishmasligi, mavzularning murakkabligi, fanlar bo'yicha mutaxassislarining yetishmasligi, o'quvchi uyining maktabdan uzoqligi, ota-onasining o'quvchi o'qishiga befarqligi, o'quvchi xotirasining zaifligi, dars davomidagi kayfiyati, salomatligi, darslarga to'liq qatnashmasligi, o'quvchini uy vazifalarini bajarmasligi, o'quvchini oilaviy sharoitini yetarli emasligi. Bu omillarning sanog'i yo'q [2-10].

Buni amalga oshirishdagi tajribam bilan bo'lishishga ijozat bering. Bo'limni o'rganib chiqqandan so'ng, o'quvchilar bilimining nazorat qismini o'tkazaman, kamchiliklarni aniqlayman, o'quv topshiriqlaridan orqada qolgan o'quvchining bilimidagi kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ish rejasini tuzaman. Men o'quvchi o'rganishi kerak bo'lgan minimal bilim va ko'nikmalarni belgilayman. Men

o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilarning ota-onalarini ish rejasi bilan tanishtiraman. Rejada men past o‘zlashtirilgan mavzularni, ota-onalar uchun tavsiyalarni va har bir mavzu bo‘yicha tugash sanalarini belgilayman. Topshiriqlar o‘quvchining imkoniyatlarini hisobga olgan holda tuziladi. Men haftasiga ikki marta qo‘shimcha mashg‘ulotlar o‘tkazaman, ularda o‘zlashtirishi past o‘quvchi bilan individual ishlayman [11-17].

Darsda: - muammoli vaziyatlar yarataman;

- mustaqil fikrlashni faollashtiraman;

- o‘quvchining muvaffaqiyatiga qiziqish ko‘rsatish;

- mustaqil ishlarni tashkil etishda tabaqalashtirilgan yondashuvdan foydalanaman, shu jumladan amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan individual topshiriqlar;

- kichik kichik mashqlar va boshqa ma'lumotnomalar bilan ishlashni o‘rganish.

Yangi narsalarni o‘rganish jarayonida men o‘quv materialini tushunishlarini aniqlaydigan savollar bilan past natijalarga erishgan o‘quvchilarga murojaat qilaman. Men mavzuning eng muhim elementlarini tushuntirishga e‘tibor qarataman. Yangi tushuncha, xususiyat, algoritmlar bilan tanishtirishda men uni guruhlarga ajratmasdan, butun sinf bilan ishlayman. Doskada bir nechta bajarilgan mashqlardan so‘ng o‘quvchilar differensial mustaqil ishlarni boshlaydilar. O‘quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan ko‘p bosqichli topshiriqlar sinfda qulay psixologik muhit yaratadi. Har bir to‘g‘ri hal qilingan vazifadan keyin bolalarda qoniqish hissi paydo bo‘ladi. Qiyinchiliklarni yengish natijasida erishilgan muvaffaqiyat bilim faolligini oshirishga kuchli turtki beradi. Darslarda men eslatmalar, algoritmlar, qoidalar, qo‘llab-quvvatlash sxemalari, jadvallar bilan yordamchi daftardan foydalanaman. Men bolalarga mustaqil ish paytida ushbu daftardan foydalanishga ruxsat beraman, tekshirish va nazorat ishlari bundan mustasno [18-20]. Past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarga savol berish men etakchi savollarni beraman, materialni izchil taqdim etish imkoniyatini beraman. Men yozma javoblarni mashq qilaman, o‘ylash va tayyorgarlik ko‘rish uchun yetarli vaqt ajrataman, bunday topshiriqning borishini tushuntiraman. Men topshiriq bajariladigan qoidalarni aniqlayman. Men topshiriqni

bajarishda eng tipik xatolar, noto‘g‘ri yondashuv haqida ogohlantiraman. Men tez-tez bir xil turdagi topshiriqlarni beraman: biri o‘qituvchi bilan, ikkinchisi - o‘qituvchi bilan birgalikda, uchinchisi - har biri alohida. Men bolani eng kichik muvaffaqiyati uchun maqtayman, shunda u yangi cho‘qqilarni zabt etish istagi paydo bo‘ladi. Men uy vazifalari bo‘yicha batafsil brifing o‘tkazaman, ularning hajmini nazorat qilaman, bu o‘quvchi uchun mumkin bo‘lishi kerak. Past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlash juda ko‘p mehnat va sabr. Bu xotira, mantiq, fikrlash, o‘rganishga qiziqishning bosqichma-bosqich rivojlanishi. Men tizimli ishlarni olib boorish orqali ijobiy tendentsiyani ko‘rmoqdaman, o‘quvchilarning shaxsiy o‘shini qayd etamoqdaman. Bolalar faolroq va samaraliroq bo‘lishdi, o‘rganishga qiziqishlari paydo bo‘ldi [21-28].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR: (REFERENCES)

1. Афонина Е.А. Некоторые пути преодоления неуспеваемости [Текст] / Е.А. Афонина // Начальная школа. – 2011. – №6. – С. 26–27.
2. Еропкина А. Больше внимания слабоуспевающим ученикам [Текст] / А. Еропкина // Начальная школа. – 1985. – №9. – 22 с.
3. Зинченко С.Н. Почему детям бывает трудно учиться [Текст] / С.Н. Зинченко. – К., 1990. – 57 с.
4. Makhkamov Y. M., Mirzababayeva S. M. Deformation of reinforcement and concrete of bended concrete structures with fiberglass reinforcement //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – Т. 10. – №. 9. – С. 529-537.
5. Mirzaakbarovna M. S. Wood Drying In Construction //The American Journal of Applied sciences. – 2021. – Т. 3. – №. 05. – С. 229-233.
6. Mirzaakbarovna M. S., Sultanbayevich T. N. Wood Processing For Construction //The American Journal of Applied sciences. – 2021. – Т. 3. – №. 05. – С. 186-189.
7. Мирзабабева С. М. Определение Величины Усушки Древесины Хвойных Пород Исползуемых В Условиях Сухого Жаркого Климата //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 40-47.

8. Мирзабабаева С. М. Мирзажонович ҚҒ Бетон ва темирбетон конструкциялар бузилишининг турлари ва уларнинг олдини олиш //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – С. 91.
9. Mamazhonovich M. Y., Abdugofurovich U. S., Mirzaakbarovna M. S. The Development of Deformation in Concrete and Reinforcement in Concrete Beams Reinforced with Fiberglass Reinforcement //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 18. – С. 384-391.
10. Махкамов Й. М., Мирзабабаева С. М. Образование и развитие трещин в изгибаемых железобетонных элементах при высоких температурах, их деформации и жесткость //Научно-технический журнал ФерПИ. – 2019. – №. 3. – С. 160.
11. Турсунов С. и др. Исследование физико-механических свойств термообработанной древесины тополя //Труды Новосибирского государственного архитектурно-строительного университета (Сибстрин). – 2018. – Т. 21. – №. 2. – С. 127-139.
12. Мирзабабаева С. М., Ахмадалиев А. Х. Проверка характеристик прочности и устойчивости рекламной конструкции щита //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 6. – С. 361-370.
13. Ахмадалиев А. Х., Мирзабабаева С. М. Композит арматурили эгилувчи тўсинларнинг юк остида кучланиб деформацияланиши //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 6. – С. 416-423.
14. MS Mirzaakbarovna Determining the Value of Coniferous Wood Drying //Miasto Przyszłości, 2022 104-107
15. Махкамов Й. М., Мирзабабаева С. М. Прогибы изгибаемых железобетонных элементов при действии поперечных сил и технологических температур //Проблемы современной науки и образования. – 2019. – №. 12-2 (145). – С. 57-62.
16. Mamajonov A. U., Yunusaliev E. M., Mirzababaeva S. M. Production test for producing porous filler from barkhan sand with additives of hydrocastic clay and oil

waste //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 5. – С. 629-635.

17. Zokir A., Sherzodbek Y., Durдона O. THE STATE CADASTRE FOR THE REGULATION OF INFORMATION RESOURCES FOR THE FORMATION AND IMPROVEMENT //Educational Research in Universal Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 47-53.

18. Гончарова Н. И. и др. Применение Шлаковых Вяжущих В Конструкционных Солостойких Бетонах //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 32-35.

19. O'G'li S. Y. S., Zuxriddinova M. S., Qizi A. S. B. THE USE OF MAPINFO PROGRAM METHODS IN THE CREATION OF CADASTRAL CARDS //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. A3. – С. 278-283.

20. Shavkat o'g'li Y. S., Avazbek o'g'li A. A. Ways to Improve the Application of Cartographic Research Method in the Development and Equipment of Land Resources Cards //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES. – 2022. – Т. 3. – №. 7. – С. 139-145.

21. Sherzodbek Y., Durдона O. THEORETICAL BASIS FOR THE USE OF MODERN GIS TECHNOLOGIES IN THE CREATION OF NATURAL CARDS //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 4-10.

22. Sherzodbek Y., Sitora M. THE ESSENCE OF CARTOGRAPHIC MAPS IS THAT THEY ARE USED FOR CARTOGRAPHIC DESCRIPTION OF THE TERRAIN. GENERALIZING WORKS IN THE PREPARATION OF MAPS //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 27-33.

23. Arabboevna A. M., Shavkat o'g'li Y. S. The Use of Geoinformation Systems in the Study of the Land Fund of Household and Dekhkan Farms //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. – Т. 8. – С. 163-164.

24. Khakimova K. R. et al. SOME TECHNOLOGICAL ISSUES OF USING GIS IN MAPPING OF IRRIGATED LANDS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 4. – С. 226-233.

25. Arabboyevna A. M. Biological Activity of Typical Irrigated Gray Soils //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES. – 2022. – Т. 3. – №. 6. – С. 285-289.
26. Mavlyankulova S. Z. et al. THE ESSENCE AND FUNCTIONS OF CREATING A CARD, CHOOSING A METHOD FOR CREATING A CARD //INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 3-8.
27. Mukhriddinkhonovich A. Z. Actual Issues of Design of Small Towns in Uzbekistan //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES. – 2022. – Т. 3. – №. 6. – С. 576-580.
28. Allahanov Z., Isakov S. Old architecture or modern architecture in Uzbekistan //Збірник наукових праць ЛОГОΣ. – 2020. – С. 64-67.

ФУҚАРОЛАР (ЖИСМОНИЙ ШАХСЛАР)НИНГ ҲУҚУҚИЙ МАҚОМИНИНГ АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ

Imomov Nurillo Fayzullayevich

Yuridik fanlar doktori, professor

Toshkent davlat yuridik universiteti

Fuqarolik huquqi kafedrası mudiri

nurillo_1212@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Фуқаролар, яъни жисмоний шахслар – фуқаролик ҳуқуқининг “асосий субъекти” ҳисобланади. Инсон – жисмоний шахс – фуқаро фуқаролик ҳуқуқий муносабатларнинг иштирокчиси ҳисобланади. Ҳуқуқ субъекти сифатида эркинда, онг ва фикрлаш туйғуси фақат инсонга хосдир. Ҳуқуқнинг субъектлари ҳисобланган давлат ва юридик шахс инсон томонидан уйлаб топилган “уйдирма субъектлардир”. Шу сабабли фуқароларнинг ҳуқуқий мақоми, уларнинг ҳуқуқ ва муомала лаёқатини қонунчилик даражасида белгилаш ижтимоий муносабатлардаги фуқароларнинг иштирокини ҳуқуқий тартибга солиш асослари, йўналишлари аниқлаб олиш мумкин.

Калит сўзлар: фуқаролик ҳуқуқи, қонунчилик, фуқаролик кодекси, тамойиллари, фуқаролик ҳуқуқининг изоҳи, фуқаро, юридик шахс, давлат, ҳуқуқий муносабатлар, ҳуқуқий тартибга солиш, корпоратив муносабатлар.

SOME ASPECTS OF THE LEGAL STATUS OF CITIZENS (NATURAL PERSONS)

Imomov Nurillo Fayzullaevich

Doctor of Law (DSC) , Professor

Tashkent State University of Law

head of department

nurillo_1212@mail.ru

ANNOTATION

Citizens, i.e. natural persons, are the "main subject" of civil law. A person - a natural person - a citizen is a participant in civil legal relations. As a subject of law, the will, consciousness and sense of thinking are unique to man. The state and legal entity, which are considered subjects of law, are "fictional subjects" invented by man. Therefore, it is possible to determine the legal status of citizens, their rights and capacity to act at the legislative level, the bases and directions of legal regulation of citizens' participation in social relations.

Key words: civil law, legislation, civil code, principles, interpretation of civil law, citizen, legal entity, state, legal relations, legal regulation, corporate relations.

Амалдаги Фуқаролик кодекси (кейинги ўринларда - ФК)да фуқароларнинг ҳуқуқ субъектчилигига оид қоидалар бир қадар мавҳум бўлиб, бу борадаги асосий саволларга жавоб бера олмайди. Биринчи навбатда, амалдаги ФК фуқаро, аниқроғи жисмоний шахс тушунчасига аниқ таърифни ифодаламайди. Чунки, ФКда фуқаро термини шунчаки жисмоний шахс эканлиги қайд этилади, холос. Моҳиятан фуқаро – жисмоний шахс термини кимни англатишини ФКнинг 16-моддасидан англаш мушкул. Чунки “жисмоний шахс” деганда ҳар қандай тирик мавжудотни англаш мумкинлиги узоқ вақтлардан буён мутахассислар томонидан қайд этиб келинади. Лекин шунга қарамасдан, қонунчиқарувчи бу борада фуқаро тушунчасига нисбатан умумқабул қилинган терминлардан фойдаланмайди. Албатта, фуқаро – жисмоний шахс дейилганда, аввало одамлар, кишилар, тўғрироғи инсонлар тушунилиши барча аён. Лекин қонунчиқарувчи ушбу оддий ҳақиқатни қонунчилик даражасида ифода этиш ўрнига фуқаро тушунчасини ўта умумий термин бўлган “жисмоний шахс” термини билан ифода этишни афзал билади. Шу ўринда савол туғилади. Балки жисмоний шахс

терминига эквивалент термин сифатида фуқаро тушунчаси ўрнига инсон (ёки одам) терминини қўллаган ўринли бўлар? Зеро фуқаролик ҳуқуқ доктринаси шахсларни икки тоифага, яъни жисмоний шахс ва юридик шахсга ажратади. Жисмоний шахс сифатида инсонлар тушунилади, фуқаролар эмас. Чунки фуқаро термини биринчи навбатда, инсоннинг қайсидир давлат билан сиёсий-ҳуқуқий боғлиқлигини англатувчи термин ҳисобланади (Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 13 мартдаги ЎРҚ-610-сон “Ўзбекистон Республикасининг фуқаролиги тўғрисида”ги қонуни 4-моддаси биринчи қисми). Фуқаролик-ҳуқуқий муносабатларда эса жисмоний шахслар бирор-бир давлат билан сиёсий-ҳуқуқий боғлиқлигидан⁶ қатъий назар иштирок этадилар ва бу муносабатларда уларга фуқаролик тақдим этиш турли мунозараларни келтириб чиқариши мумкин⁷. Шу боис амалдаги ФКнинг 16-моддасида фуқаро тушунчаси бир вақтда Ўзбекистон Республикаси фуқаролиги, чет эл фуқаролиги ва фуқаролиги бўлмаган шахсларни англатиши борасида ёндашувни тушуниш мумкин. Лекин барибир, ФК “жисмоний шахс” тушунчасининг изоҳи бериши лозим. Бу ФКдаги ёндашувлар мувозанатини таъминлашга ҳам хизмат қилади. Чунки, ФКнинг 39-моддаси “юридик шахс” тушунчасининг таърифини ифода этган. Фикримизча, ФКнинг янги таҳририда жисмоний шахс тушунчасига қуйидаги таърифни таклиф этиш мумкин: Инсон фуқаролик-ҳуқуқий муносабатлар иштирокчиси сифатида жисмоний шахс (фуқаро) ҳисобланади.

Фуқаронинг ҳуқуқ лаёқати унинг муайян ҳуқуқ ва бурчга соҳиби эканлигини англатувчи ҳолатдир. Ҳар бир инсон туғилишидан бошлаб то вафотига қадар муайян ҳуқуқ ва бурчлар эгаси ҳисобланади ва у мазкур лаёқати маҳрум этилиши мумкин эмас. Шу билан бирга, инсон ёши катта бўла борган сари у эга бўлиши мумкин бўлган ҳуқуқ ва бурчлар доираси кенгайиб боради. Бироқ муайян ҳуқуқ ва бурчлар мавжудки, уларга эга бўлиши учун инсоннинг муайян ёшга кирган бўлиши талаб этилади. Масалан, ФКнинг 18-моддасида

⁶ Раҳмонкулов Ҳ.Р. Фуқаролик ҳуқуқининг субъектлари. Ўқув қўлланма. – Тошкент: ТДЮИ, 2008. – 7 б.

⁷ Матқурбанов Р. Проблемы правосубъектности граждан (физических лиц) в гражданском праве. Монография. – Ташкент: ТГЮИ, 2008. – 167 с.

санаб ўтилган ҳуқуқ лаёқати мазмунини ташкил этувчи айрим ҳуқуқларга эга бўлиш учун, жумладан “банкда жамғармаларга эга бўлиш”, “тадбиркорлик, деҳқон (фермер) хўжалиги билан ҳамда қонунда тақиқлаб қўйилмаган бошқа фаолият билан шуғулланиш”, “ёлланма меҳнатдан фойдаланиш”, “юримдик шахслар ташкил этиш” учун фуқаро 18 ёшга тўлган бўлиши талаб этилади. Бирок бу ҳолат фуқаронинг ҳуқуқ лаёқати тушунчасининг очиб берувчи ФКнинг 17-моддасидан англашилмайди ва бу ФКнинг 18-моддаси мазмунига мос келмайди. Чунки, ФКнинг 17-моддаси фуқаро туғилиши билан ҳуқуқ лаёқатига эга бўлишини белгилайди. Агар шу қоидага таянадиган бўлсак, 10 ёшли бола номига ҳам юримдик шахс очилиши ёки шу ёшдан бошлаб ёлланма меҳнатдан фойдаланиши, “машғулот турини ва яшаш жойини танлаши” мумкин бўлади. Мазкур вазиятда тегишли қонунчиликда бундай ҳуқуқларга эга бўлиш ёши белгиланган бўлиши мумкин, албатта. Бирок бу ҳолатлар ФКнинг 17-моддаси мазмунига мос келмай қолади. Мазкур номувофиқлик бартараф этиш учун эса хорижий мамлакатлар тажрибасидан келиб чиқиб, янги тахрирдаги ФКга “қонунда белгиланган ҳолларда алоҳида ҳуқуқлар ва бурчларга эга бўлиш фуқаронинг муайян ёшга етиши билан боғлиқ бўлиши мумкин”лиги қоидасини киритиш лозим бўлади. Бундай норма Украина ГКнинг 25-моддасида ҳам белгиланган.

Фуқаронинг ҳуқуқ лаёқати одатда у туғилган пайдан бошланади ва вафоти билан тугайди. Бу фуқаролик ҳуқуқи доктринасида умумқабул қилинган қоида ҳисобланади. Лекин бугунги фан ва технологиянинг тараққиёти мазкур доктринага нисбатан истисноларни ҳам юзага келтирмоқда. Бундан ташқари, фуқаролик-ҳуқуқий муносабатларнинг айрим турларида бола туғилишидан олдин, яъни ҳали ҳомила пайтида ҳам унинг ҳуқуқ лаёқати вужудга келиши мумкинлиги борасида фикрлар юзага келгани кўп йиллар бўлди. Шунга қарамасдан, боланинг тирик туғилиши ёки ўлик туғилишининг ҳуқуқий оқибати, бошқача айтган фуқаролик-ҳуқуқий муносабатга таъсири хусусида қонунчиликда фақат айрим қоидалар мавжуд. Масалан, мерос бўйича амалдаги

қонунчилик мерос қолдирувчи вафотидан кейин 300 кун ичида туғилган бола меросхўр ҳисобланиши ҳақидаги қоида белгилайди (ФКнинг 1118-моддаси, Оила кодексининг 60-моддаси иккинчи қисми). Меросхўр сифатида эътироф этилиши учун бола мерос қолдирувчининг ҳаётлик пайтида ҳомила ҳолида бўлиши ва мерос очилганидан кейин тирик туғилиши талаб этилади (ФКнинг 1118-моддаси). Бироқ бошқа ҳуқуқий муносабатларда боланинг тирик туғилиши ҳам аҳамият касб этиши мумкин, масалан, оналик ва болалик муносабатларининг юзага келиши, онага нисбатан туғилишдан кейинги таътил билан боғлиқ масалаларда бу ҳолат кузатилади. Шу боис ФКнинг янги таҳририга “Туғилмаган (ҳомила ҳолатидаги) бола у ҳомила сифатида шаклланган пайтдан бошлаб унинг манфаатлари билан боғлиқ барча муносабатларда жисмоний шахс (фуқаро) ҳисобланиши, агар бола ўлик туғилса, у шахс сифатида мавжуд бўлмаган ҳисобланади, боланинг ўлик туғилиши ноқонуний сабаблар билан боғлиқ бўлган муносабатлар бундан мустаном”лигига оид қонун қиритиш мақсадга мувофиқдир.

REFERENCES:

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. F-5464 dated April 5, 2019 // <https://lex.uz/docs/4272621>
2. Abramov A.I. Understanding the functions of law // Journal of Russian law. 2006. - №2. - S. 71-83.
3. Muxammadiev A.A. Theoretical and practical problems of the principles of civil law: jurid. fan. doct. dis. ... - Tashkent: 2012. - 12 p.
4. Klimova A.N. Principles of civil law : avtoref. dis. ... cand. jurid. nauk. - M.: 2005.
5. Rahmonqulov H. Object, method va principles of Civil Law. - Tashkent: 2003. - 28 p.
6. Reich N. General Principles of EU Civil Law (Cambridge, Intersentia, 2014) XXVIII and 216 pages.

7. Jeremy Bentham. Principles of the Civil Code // <https://www.laits.utexas.edu/poltheory/bentham/pcc/pcc.pa01.int.htm>
8. Sotivoldievich, B. M. (2021). Legal Issues Of Improving Health Insurance In The Republic Of Uzbekistan. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 3(02), 50-58.

ТИББИЙ СУҒУРТА ТУРЛАРИНИНГ ТАҲЛИЛИ

Болтаев Мансуржон Сотиволдиевич

Тошкент давлат юридик университети

Фуқаролик ҳуқуқи кафедраси доценти

E-mail: beshkap0721@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада тиббий суғурта турларининг моҳияти, уларнинг ўзаро нисбати ва қўллашнинг ўзига хос хусусиятлари таҳлил қилинади. Фуқароларнинг соғлиғини сақлашни ташкил этиш ва уни самарали амалга оширишда мақбул ва изчил ҳуқуқий механизмларни жорий этиш муҳим ўрин тутди. Тиббий суғуртанинг ихтиёрий ва мажбурий турлари амал қилишида нафақат фуқаролар ва давлат маблағлари, балки иш берувчилар ва бошқа тузилмалар маблағларини жалб этиш соғлиқни сақлаш тизимига тушаётган юкни камайтиришга хизмат қилади. Шу сабабли тиббий суғуртани таснифлаш ва турларга ажратиш, унинг асослари ва мезонларини таҳлил қилиш долзарбдир.

Калит сўзлар: тиббий суғурта, мажбурий тиббий суғурта, ихтиёрий тиббий суғурта, соғлиқни сақлаш, шартнома, хизмат кўрсатиш, тиббий муассаса.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется сущность видов медицинского страхования, их взаимосвязь и особенности применения. Внедрение приемлемых и непротиворечивых правовых механизмов имеет важное значение в организации охраны здоровья граждан и ее эффективной реализации. При осуществлении добровольных и обязательных видов медицинского страхования привлечение средств не только граждан и государства, но и работодателей и иных организаций служит снижению нагрузки на систему здравоохранения. Поэтому

важно классифицировать и разделить медицинское страхование на виды, проанализировать его основания и критерии.

Ключевые слова: медицинское страхование, обязательное медицинское страхование, добровольное медицинское страхование, здравоохранение, договор, услуга, лечебное учреждение.

Тиббий суғуртани кўллаш орқали соғлиқни сақлашга нисбатан давлат бюджети ва фуқароларнинг шахсий маблағларига тушаётган юкни камайтириш мумкин. Чунки, фуқароларнинг соғлиғи ёмонлашса ва уни тиклаш учун тиббий аралашув зарурати юзага келса тиббий суғурта ҳодисаси содир бўлган ҳисобланади ва даволаниш учун кетадиган харажатлар суғурталовчи – суғурта компаниялари томонидан қоплаш берилади. Бунда тиббий суғуртанинг қайси тури – шартномавий тури – ихтиёрий суғурта ёки тегишли давлат дастурларига асосланган тури – мажбурий тиббий суғурта қўлланилиши тиббий суғуртанинг вужудга келиш асосларига боғлиқ бўлади.

Таъкидлаш лозимки, кўпгина адабиётларда тиббий суғуртанинг фақат ихтиёрий ва мажбурий тиббий суғурта каби турлари мавжудлиги таъкидланади. Бу туркумлаш суғурта шартномасининг ихтиёрий ва мажбурий турига асосланади. Лекин, айрим адабиётларда “мажбурий” ва “ихтиёрий” атамалари ноаниқлиги, чунки давлат суғурта органи учун “ихтиёрий” суғуртани ҳам қабул қилиш мажбурияти мавжудлиги, зеро, давлат суғурта органи ташкилотлар ва фуқароларга, башарти ташкилот ёки фуқаронинг суғурталаш борасидаги таклифи қонун талабларига ва суғурта қоидаларига мувофиқ бўлса, улар билан ихтиёрий суғурта шартномалари тузишни рад эта олмаслиги таъкидланади[1].

Шу билан бирга кўпгина давлатлар қонунчилигида ҳам мазкур шакллар алоҳида эътироф этилади. Жумладан, Россия Федерациясининг “Россия Федерациясида фуқароларни тиббий суғурталаш тўғрисида”ги Қонунига кўра, тиббий суғурталашнинг мақсади, суғурта ҳодисаси юз берганда жамғарилган маблағлар ҳисобидан фуқароларга тиббий хизмат кўрсатилишини кафолатлаш

ва профилактик чора-тадбирларни молиялаштириш ҳисобланиб, у икки хил кўринишда амалга оширилади: ихтиёрий ва мажбурий[2].

Шунга ўхшаш нормалар Исроил[3], Франция[4], АҚШ ва бошқа кўплаб мамлакатларнинг қонунчилигида белгилаб қўйилган.

Бу икки тур асосан тиббий суғурта муносабатларининг вужудга келиш асослари бўйича турларга ажратишни мезон сифатида олади[5].

Лекин назаримизда, ФК ва миллий адабиётлардаги суғурта шаклларида келиб чиқиб, ихтиёрий, мажбурий ва мажбурий давлат тиббий суғуртасига бўлиш мақсадга мувофиқ. Улар ҳар бири ўз хусусияти, вужудга келиш асослари, молиялаштирилиш манбаларидан келиб чиқиб фарқланади. Зеро О.Оқюлов ва Н.Эгамбердиеваларнинг таъкидлашича, бу шакллар суғурта шартномасининг мустақил тармоқлари бўлиб, улар ўзининг иқтисодий ва юридик негизи жиҳатидан, техникаси ва амалга оширилиш йўллари жиҳатидан тамомила хилма-хилдир[6].

Бундан ташқари айрим давлатлар қонунчилигида (Германия) тиббий суғурта шартномаси жамоавий ва хусусий тиббий суғурта каби турларга бўлинган[7]. Бу шакллар моҳиятан мажбурий ва ихтиёрий тиббий суғурта шартномаси билан бир хил. Зеро мажбурий тиббий суғурта давлат томонидан мажбурий равишда амалга оширилиши, давлатнинг соғлиқни сақлаш билан боғлиқ манфаатлари билан боғлиқлиги, барча аҳоли қатламларини қамраб олиши, суғурталанувчилар учун бир хил имконият яратиш берилиши билан жамоавийдир. Ихтиёрий тиббий суғурта эса хусусий – яқка шахс хоҳиш-иродаси натижасида тузилади ва у ўз хусусиятига кўра хусусий (яқка) шахс манфаатларидан келиб чиқади.

Тиббий профилактика тадбирлари одатда келажакда касалликка чалинмаслик учун амалга оширилади. Масалан, эмлаш (вакцинация). Бу ҳолат ҳам юқоридаги дори-воситалари билан таъминланиш каби катта таваккалчиликка эгадир. Шу боис профилактик тадбирлар айрим давлатлар тиббий суғурта қонунчилиги мақсади таркибига киритилмаган.

Бундан ташқари, ихтисослашган тиббий хизматнинг айрим турларини суғурталашга қаратилган тиббий суғурта шартномалари ҳам тузилиши мумкин. Бу кўпинча ихтиёрий тиббий суғуртада суғурталановчининг моддий имкониятлари доирасидан келиб чиқиши мумкин. Буни “тўлиқ бўлмаган тиббий суғурта шартномаси” деб номлаш мумкин. Уларга:

бир марталик тиббий хизматни суғурталаш шартномаси;

комплекс тиббий хизматни суғурталаш шартномаси;

амбулатория ва (ёки) стационар тиббий хизматни суғурталаш шартномаси киради.

Юқоридагилардан келиб чиқадиган бўлсак, тиббий суғурта шартномаси анъанавий ва ноанъанавий йўсинда туркумлаш мумкин. Анъанавий туркумлашга ихтиёрий ва мажбурий тиббий суғуртани, ноанъанавий туркумлашга предмети ва ихтисослашуви бўйича турларга бўлинган тиббий суғурталарни киритиш мақсадга мувофиқ.

ҲОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ: (REFERENCES)

1. Граве К.А., Лунц Л.А. Страхование. – М.: 1960. – 24 с.
2. www.consultant.ru: Закон о медицинском страховании граждан в российской федерации (в ред. Закона РФ т 02.04.1993 N 4741-1, Федеральных законов от 29.05.2002 N 57-ФЗ, от 23.12.2003 N 185-ФЗ, от 27.07.2006 N 137-ФЗ, от 29.12.2006 N 258-ФЗ, от 23.07.2008 N 160-ФЗ, от 18.07.2009 N 185-ФЗ, от 24.07.2009 N 213-ФЗ, с изм., внесенными Указом Президента РФ от 24.12.1993 N 2288, Федеральным законом от 01.07.1994 N 9-ФЗ)
3. <http://www.israelinfo.h1.ru>
4. <http://www.securite-sociale.fr>
5. Федорова М.Ю. Медицинское право. –М.: Владос, 2004. – 39 с.
6. Муаллифлар жамоаси. Фуқаролик ҳуқуқи. Иккинчи қисм. –Тошкент: Илм зиё. 2008. – 547 б.

7. http://www.toytowngermany.com/wiki/Health_insurance Article: “Health insurance” wr. by Patrick Ott

**GEOGRAFIYA DARSLARIDA YANGI INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI
(GEOGRAFIK BOSHQOTIRMA)**

Xamroyeva Feruza Asrorovna

Sharof Rashidov nomidagi O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,
pedagogika fanlari falsafa doktori, dosent

Davronova Mavjuda Akmal qizi

Sharof Rashidov nomidagi O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti
E-mail: mavjudadavronova1996@gmail.com

ANNOTATSIYA

